Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida)	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



**Xolmatov Sanjarbek
Xojimamatovich**

Andijon qishloq xo'jaligi va
agrotexnologiyalar instituti
doktoranti

QISHLOQ XO'JALIGINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)

Annotatsiya: Maqolada "barqaror rivojlanish" qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish va barqaror investitsiyalar tushunchalarining mohiyati ochib berilgan. Andijon viloyati qishloq xo'jaligining hozirgi holati sohaga kiritilgan investitsiyalar ko'rib chiqilgan. Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: barqaror rivojlanish, qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish omillari, barqaror investitsiyalar, Andijon viloyati qishloq xo'jaligi, ratsional iste'mol me'yori, asosiy kapitalga investitsiyalar, investitsiya loyihalari, "yashil" obligatsiyalar, "aqlli" qishloq xo'jaligi.

Abstract: The article reveals the essence of the concepts of "sustainable development", "sustainable development of agriculture", "sustainable investment". The current state of agriculture in the Andijan region, investments in fixed capital of the industry are considered. Proposals for sustainable development of agriculture are given.

Key words: sustainable development, factors for sustainable development of agriculture; "sustainable investment", agriculture of Andijan region, rational consumption rate, investments in fixed assets, investment projects, "green" bonds; "smart" agriculture.

Аннотация: В статье раскрывается сущность понятий "устойчивое развитие", "устойчивое развитие сельского хозяйства", "устойчивые инвестиции". Рассмотрено современное состояние сельского хозяйства Андижанской области, инвестиции в основной капитал отрасли. Даны предложения по устойчивому развитию сельского хозяйства.

Ключевые слова: устойчивое развитие, факторы устойчивого развития сельского хозяйства, "устойчивые инвестиции", сельское хозяйство Андижанской области, рациональная норма потребления, инвестиции в основной капитал, инвестиционные проекты, "зеленые" облигации, "умное" сельское хозяйство.

KIRISH

Hozirgi kunda O'zbekiston oldida iqtisodiy rivojlanish sifatini o'zgartirish, iqtisodiy o'sishni xom ashyo yetishtiruvchi tarmoqlar va ularning mahsulotini eksport qilish hisobiga emas, balki ilm talab qiluvchi omillar hisobiga ta'minlash, innovatsion turdagi iqtisodiyotni shakllantirish vazifasi turibdi. Xom ashyo yetishtiruvchi tarmoqlar hisobiga rivojlanish modeli samarasiz hisoblanadi va u uzoq muddatli istiqboldagi barqaror rivojlanishning shartlarini hosil qilmaydi. Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT)ning "Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti" (Food and Agriculture Organization, FAO)ning baho berishiga ko'ra, tobora o'sib borayotgan talabni qondirish uchun 2050 yilga kelib qishloq xo'jaligi tarmog'i tomonidan 2012-yilga nisbatan salkam 50% ga ko'proq oziq-ovqat mahsuloti, yem-xashak va bioyong'ini ishlab chiqarish lozim bo'ladi. Agar o'z vaqtida tegishli choralar ko'rilsa, ushbu yuqori talabni qondirish jiddiy muammoga aylanmaydi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining eng yuqori o'sishi 1960-yildan 2015-yilgacha bo'lgan davr uchun qayd qilingan, ushbu davrda dunyo qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi hajmi 3 barobardan ortiqroqqa o'sgan (FAO, 2017). Ammo lekin, bir qator omillar, jumladan, iqlimning o'zgarishi, tabiiy resurslarga bo'lgan bosimning o'sishi, qishloq xo'jaligiga kiritiladigan inves-titsiyalarning yetarli emasligi va texnologiyalardagi kamchiliklar tufayli ishlab chiqarishning



o'sish sur'atlarini ta'minlash avvalgilardan ko'ra qiyinroq bo'lib bormoqda. Faqatgina innovatsiyalar va shiddatli texnologik rivojlanish oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabni barqaror asosda qondirish istiqbollarini ochadi. Bunga esa faqatgina investitsiyalarni ko'paytirish va davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirishning samarali davlat siyosati yordamida erishish mumkin, bu orqali unumdorlikning joriy darajasini ushlab turish uchun, daromadlilikni barqaror o'stirish uchun, kambag'allikni barqaror qisqartirish uchun imkoniyatlardan foydalaniladi. "Har bir investor, O'zbekiston deganda, eng avvalo, barqarorlik va kelajakka ishonchni tasavvur qilishiga intilayapmiz" (Sh. M. Mirziyoyev). Muhtaram Prezidentimizning ushbu so'zlari xam mavzuning dolzarbligini tasdiqlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Izlanishlarimiz ko'rsatishicha, "barqaror rivojlanish" deganda "Birlashgan millatlar tashkiloti", xalqaro tashkilotlar, G'arbning olimlari asosan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillarning uyg'unlashuvini nazarda tutsa, "Mustaqil davlatlar xamdo'stligi" davlatlari olimlari qarashlarida asosan "barqarorlik" so'zining ustunligi ko'zga tashlanmoqda, ya'ni, keskin pasayishlarsiz, bir tekisda, barqaror o'sib borish ma'nolarida. Nazarimizda, "barqaror rivojlanish" bu – murakkab tizimning shunday rivojlanish turi-ki, bunda innovatsion investitsiyalarni kiritish asosida, "yashil" iqtisodiyot asosida, ichki va tashqi omillar ta'sirida uning maqsadli yo'naltirilgan o'zgarishiga erishiladi va minimal og'ishda, minimal sarf-xarajatlar bilan, insoniyatning hozirgi va kelgusi avlodlarining manfaatlarini hisobga olgan holda ma'lum sifatli mahsulot yaratilishi ta'minlanadi.

Barqaror qishloq xo'jaligi bu – qishloq xo'jaligini barqaror tarzda yuritish, bunda oziq-ovqat va tekstil mahsulotlariga bo'lgan jamiyatning bugungi kundagi ehtiyojlari qondiriladi va hozirgi yoki bo'lg'usi avlodlarning o'z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlari xavf ostiga olinmaydi ^[1]. "Birlashgan millatlar tashkiloti"ning "Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti" (FAO) "qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish" tushunchasi ostida barqaror usul bilan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish darajasini oshirish va oziq-ovqat xafsizligini ta'minlashni tushunadi. Bir guruh polshalik olimlarning fikricha, qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish maqsadlari quyidagilar: qishloq xo'jaligi xodimlarining yuqori turmush darajasini ta'minlash; atrof-muhit uchun ifloslanish va boshqa xavflar keltirib chiqarmaydigan ishlab chiqarish usullariga erishish; iloji boricha, maksimal ravishda, qayta tiklanuvchi resurslardan foydalanish; qishloq sotsiurnini va an'anaviy turmush tarzini saqlab qolish; chorvachilikning etik jihatlari hisobga olish ^[2].

Fikrimizcha, mamlakat qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishini ta'minlash to'rt guruh omillar, jumladan, ekologik-iqtisodiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-texnologik, ijtimoiy-ekologik-iqtisodiy omillarning kompleks ta'siri natijasidir. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning strategik yo'nalishi sifatida qishloq xo'jaligi ekinlari va chorva mahsuldorligining tabiiy, biologik omillarini maksimal ishga solish lozim, nazarimizda. Yuqoridagi omillar guruhlarida ichidagi to'rtinchi guruh omillar, ya'ni ijtimoiy-ekologik-iqtisodiy (investitsiyaviy resurslar, qishloq hududlarining rivojlanganlik darajasi, hududdagi ekologik vaziyat) omillari orasidan investitsiyaviy resurslar omilini quyida ko'rib chiqamiz.

Avvalo shuni aytish lozim-ki, "investitsiya" so'zi lotincha "investire" – kiyintirmoq (rus. "oblachat") so'zidan olingan. Sobiq Ittifoqdagi markazlashgan rejali iqtisodiyot doirasida "kapital qo'yilmalar" tushunchasi kengroq tarqalgan, u asosiy fondlarning takror ishlab chiqarilishiga, ularni ko'paytirish va takomillashtirishga yo'naltirilgan xarajatlarni anglatgan ^[3]. O'zbekistonda bozor isloxtlari boshlangach, "investitsiyalar" kategoriyasining mazmuniga bo'lgan nuqtayi nazarlar o'zgardi, va eng avvalo, bu o'zgarish qonunchilikda aks ettirildi. Endilikda investitsiyalar nazariya va amaliyotdagi eng ommabop va muxim iboralar qatoriga kiradi. Respublikamizda qator iqtisodchi olimlar investitsiya muammolari bo'yicha tadqiqotlar olib borishmoqda. Ular orasida D.G'ozibekov, T.Qoraliyev, Sh.Shodmonov, N.Haydarov, A.Jo'rayev, A.Vahobov, N.Karimov, N.Kuziyeva, D.Tojiboyeva, S.R.Umarov, B.Abdukarimov, A.Jabriyev, M.Pardayev, O.Xatamov, O.Olimjonov va boshqa iqtisodchi olimlarni alohida ta'kidlash mumkin. A.V.Vaxobov, Sh.X.Xodjibakiyev, A.G.Mo'minovlar tomonidan xorijiy investitsiya muammolari, ularni jalb etish va ulardan samarali foydalanishning barcha jihatlari batafsil yoritilgan ^[4].

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan D.G'ozibekov va T.Qoraliyevlar "Investitsiyalar – daromad (foйда) yoki ijtimoiy samara keltiradigan va tadbirkorlik, ishbilarmonlikning davlat tomonidan ta'qiqlanmagan faoliyatlariga jalb qilinadigan (sarflanadigan) barcha turdagi mulkiy va intellektual boyliklar", deb ta'riflaydilar.

Professor N.Haydarov "investitsiyalar"ga qo'yidagicha ta'rif bergan: "Investitsiya, bu – mulk shaklidan qat'i nazar, tadbirkorlik asosida faoliyat ko'rsatayotgan jismoniy va yuridik shaxslar yoki davlatning iqtisodiy va ijtimoiy samara olish maqsadida o'z ixtiyoridagi moliyaviy, moddiy va intellektual boyliklarni qonun doirasida bo'lgan har qanday tadbirkorlik obyektiga sarflashidir" ^[5].

Endi barqaror va mas'uliyatli investitsiyalar tushunchalariga to'xtalib o'tsak. Asta-sekin nomoliyaviy omillarni hisobga olib investitsiyalashning yangi turlari paydo bo'lmoqda. Eng ommabop va barqaror rivojlantirishga ko'maklashuvchi, investitsiyalar tushunchasiga yaqin bo'lganlari bu – barqaror va mas'uliyatli investitsiyalash iboralari. "Mas'uliyatli investitsiyalash" iborasi BMT Global shartnomasining ko'ngilli tashabbusi, deb



tan olingan “mas’uliyatli investitsiyalash prinsiplari” (ingl. - principles for responsible investment (PRI) bilan yaqindan bog’liq.

Bizning fikrimizcha, O‘zbekistonda xam barqaror investitsiyalash mamlakatning moliyaviy tizimi barqaror ishlashining omillaridan biri bo‘lib qolishi mumkin. Shu munosabat bilan O‘zbekistonda mavjud investitsiyalar bilan bog’liq me’yoriy-xuquqiy xujjatlarga quyidagi iborani joriy qilishni taklif qilamiz. Mas’uliyatli (barqaror) investitsiyalash - bu ekologik, ijtimoiy va korporativ-boshqaruv omillarini (ingl. ESG – environmental, social, governance, rus. ESKU – ekologicheskie, sotsialnye i korporativno-upravlencheskie faktory) hisobga oluvchi, shuningdek, uzoq muddatli davrda bozorning barqarorligini hisobga oluvchi, investitsiyaviy qarorlarni qabul qilishga bo‘lgan yondashuv.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, taqqoslash, tizimli tahlil, regression tahlil, ekspert baholash, ierarxik tahlil usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Dastlab viloyat qishloq xo‘jaligidagi holatga nazar tashlaymiz. Andijon viloyati hududi maydoni 430 ming gektardan iborat, undan 208,8 ming gektar maydonni (yoki 48,6 foizi) qishloq xo‘jaligi ekinlari egallaydi. Ushbu qishloq xo‘jaligi ekinlari, barcha toifadagi xo‘jaliklar bo‘yicha, 2021 yili quyidagi tarkibga ega bo‘lgan: 41,3% (yoki 86,2 ming gektar) don ekinlari, 37,3% (78,0 ming gektar) texnik ekinlar (shu jumladan, 36,5% yoki 76,3 ming gektar - g‘o‘za ekini), 15,4% (yoki 32,1 ming gektar) kartoshka va sabzavot-poliz ekinlari, 6,0% (yoki 12,6 ming gektar) ozuqa ekinlari. Ko‘rishimiz mumkin-ki, sobiq Ittifoq paytidan farqli o‘laroq, bugungi kunda paxta yakkaxokimligiga barxam berilgan.

Viloyatning respublika iqtisodiyotidagi o‘rni qanday? 2021 yil bo‘yicha nisbiy ko‘rsatkichlarga nazar tashlasak, Andijon viloyatining maydoni respublika maydonining 1 foizini, doimiy aholisi respublika ko‘rsatkichining 9,2 foizini (3253,5 ming kishi), iqtisodiyotda band bo‘lgan kishilar soni respublika ko‘rsatkichining 9,3 foizini (1264,3 ming kishi), Yalpi hududiy mahsuloti respublika Yalpi ichki mahsulotining 6 foizini (43790,8 mlrd. so‘m) tashkil qiladi. Aholi zichligi bo‘yicha esa Andijon viloyati ko‘rsatkichi Toshkent shaxri ko‘rsatkichidan keyingi 2-o‘rinni band etmoqda. Andijon viloyatining qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish hajmi respublika ko‘rsatkichining 10 foizini (yoki 30413,0 mlrd.so‘mni) tashkil qilgan, bu - respublika bo‘yicha Samarqand viloyatidan (12,7%) keyingi ikkinchi yuqori ko‘rsatkich. Lekin aholi jon boshiga qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish ko‘rsatkichi bo‘yicha Andijon viloyati respublikada faqatgina 8-o‘rinda (Buxoro, Jizzax, Navoiy viloyatlari kuchli uchtalikda). Viloyatda yetishtirilgan jami qishloq xo‘jaligi mahsulotining 61,7 foizi dehqonchilik, 38,3 foizi chorvachilik mahsulotlariga to‘g‘ri keladi, ya‘ni Andijon viloyati dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashgan.

Bugungi kunda viloyatning agrosanoat majmuida, turli mulkchilik shaklidagi qishloq xo‘jaligi korxonalari, fermer xo‘jaliklari, dehqon xo‘jaliklari, shaxsiy tomorqa xo‘jaliklarida 322,8 ming kishi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan mashg‘ul. Bu ko‘rsatkich Qashqadaryo viloyatida 325,8 ming kishi, Sirdaryo viloyatida 136,6 ming kishini tashkil qiladi. Andijon viloyati respublikadagi eng yirik sabzavotlar, meva va rezavorlar yetishtiruvchi hudud hisoblanadi. 2021 yilda Andijon viloyati sabzavotlar va meva-rezavorlar yetishtirish bo‘yicha (mos ravishda 1676,4 va 664,0 ming tonna) respublikada 1-o‘rinda, kartoshka yetishtirish bo‘yicha 2-o‘rinda (405,1 ming tonna), paxta xom-ashyosini yetishtirish bo‘yicha 4-o‘rinda (279,7 ming tonna), poliz ekinlarini yetishtirish bo‘yicha 4-o‘rinda (201,4 ming tonna) turgan.

Aholi jon boshiga hisoblanganda esa Andijon viloyati sabzavotlar va meva-rezavorlar yetishtirish bo‘yicha (mos ravishda 515,3 kg va 204,1 kg) respublikada 1-o‘rinda, kartoshka bo‘yicha (124,5 kg) 3-o‘rinda, bug‘doy va poliz ekinlari yetishtirish bo‘yicha (mos ravishda 159,7 kg va 61,9 kg) 9-o‘rinda, paxta xom-ashyosi yetishtirish bo‘yicha (86 kg) 10-o‘rinda ^[6].

Andijon viloyatida aholi jon boshiga asosiy oziq-ovqat mahsulotlarining iste‘mol qilinishi tahlil etilganda iste‘molning ratsional iste‘mol me‘yorlariga mosligini ko‘rsak, non mahsulotlari va mevalar – ratsional ovqatlanish me‘yori atrofida, sabzavot va poliz, sut, o‘simlik yog‘i, shakar, konditer mahsulotlari bo‘yicha iste‘mol shifokorlar tavsiyasidan yuqori, kartoshka, go‘sht mahsulotlari va tuxum mahsuloti bo‘yicha iste‘mol shifokorlar tavsiya qilgan me‘yordan past ekanligini ko‘rishimiz mumkin. “Ratsional iste‘mol me‘yori” ko‘rsatkichi O‘zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi aholisining yoshiga, jinsiga va kasbiy faoliyati guruhlari uchun sog‘lom ovqatlanishni ta‘minlashga qaratilgan o‘rtacha kunlik ratsional ovqatlanish normativlari” bo‘yicha 1-guruh kasb egalari me‘yorlaridan (ya‘ni, kichikroq ko‘rsatkichlar guruhi) olindi. Demak, bizdan sog‘lom va barkamol avlod qolishi uchun kelajakda ushbu go‘sht mahsulotlari va parranda tuxumi taklifini ko‘paytirishimiz maqsadga muvofiq.



Mamlakat iqtisodiyotining real sektor tarmoqlari bo'yicha investitsiyalar tarkibining 2015–2022-yillar holatini tahlil qilsak, qishloq xo'jaligi sohasiga jalb etilgan investitsiyalar 2015-yilda 4,4%ni tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilga kelib bu ko'rsatkich o'sgan, ya'ni 7,4%ni tashkil etgan. Eng ko'p ulushga sanoat sohasi egaligini ko'rishimiz mumkin, 2015-yilda bu sohaning ulushi 32,6% tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilda bu ulush 36,3%gacha o'sgan.

Respublikada 2022-yildagi jami asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalar va kreditlarning 112219,5 mlrd. so'mlik hajmining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sarflanishiga e'tibor qaratsak, eng ko'p xajmlar qayta ishlovchi sanoat – 42,5%, elektr va gaz ta'minoti – 14,1%, qazib oluvchi sanoat – 9,8% va boshqa tarmoqlarda – 10,7% kuzatilgan. Qishloq xo'jaligi sohasining ulushi 6,8% yoki 7612,2 mlrd. so'm bo'lgan, bu baland ko'rsatkich emas.

Andijon viloyatida 2017–2021-yillarda qishloq xo'jaligida ishga tushirilgan investitsiya loyihalarini tahlil qilsak, ushbu davrda jami 3 trln. 282 mlrd. 716 mln. so'mlik 775 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilgan va bu orqali qo'shimcha 14798 ta qo'shimcha ishchi o'rinlari yaratilgan. Shu jumladan, moliyalashtirish manbalari bo'yicha – o'z mablag'lari hisobidan 1802509 mln. so'mlik, bank kreditlari hisobidan 889534 mln. so'mlik, xorijiy kreditlar va investitsiyalar hisobidan 58200 mln. so'mlik investitsiya loyihalari amalga oshirilgan. Amalga oshirilgan loyihalar soni bo'yicha Ulug'nor, Baliqchi, Qo'rg'ontepa tumanlari ilg'or bo'lsa (jamiga nisbatan mos holda 15,1%; 8,4%; 8,1%), loyihalarning jami qiymati bo'yicha Ulug'nor, Asaka, Qo'rg'ontepa tumanlari ilg'orlar safida (jamiga nisbatan mos holda 16,5; 10,1%; 9,5%). Loyihalarning jami qiymati bo'yicha tumanlar orasida Xo'jaobod, Andijon, Buloqboshi tumanlari orqada (jamiga nisbatan mos holda 2,8%; 2,8%; 3,7%). Yangi ishchi o'rinlarini yaratish bo'yicha esa Ulug'nor, Asaka, Baliqchi tumanlari peshqadam (mos holda 2883, 2352, 1144 yangi ishchi o'rni). Ko'rinib turibdi-ki, oxirgi yillarda Ulug'nor tumanida viloyat ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir qilgan katta bunyodkorlik ishlari amalga oshirilgan.

Shuningdek, ushbu investitsiyalarning manbalariga nazar tashlasak, o'z mablag'lari hisobidan eng ko'p investitsiyalar Ulug'nor, Shaxrixon, Bo'ston, Asaka tumanlarida amalga oshirilgan. Xorijiy kredit va investitsiyalar hisobidan eng ko'p investitsiyalar esa Qo'rg'ontepa, Paxtaobod, Ulug'nor, Oltinko'l tumanlarida amalga oshirilgan. Xorijiy manbalar ichida xorijiy kreditlar 81,9%ni, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushi 18,1%ni tashkil etgan xolos.

Andijon viloyatida 2017-2021-yillarda qishloq xo'jaligida ishga tushirilgan investitsiya loyihalarini yillar kesimida tahlil qilsak, qiymati jihatidan eng ko'p investitsiyalar 2020, 2019 va 2021-yillarda amalga oshirilgan (mos holda 1282928 mln. so'm, 971685 mln. so'm va 825603 mln. so'm). E'tiborli jihati shu-ki, 2020-yil – sayyora-mizda pandemiya avj olib, aksariyat mamlakatlarda iqtisodiy faollik pasaygan yil bo'lgan. Shuningdek, investitsiyaviy loyihalar soni jihatidan eng ko'p investitsiyalar xam 2020, 2019 va 2021-yillarda amalga oshirilgan (mos holda 298, 231 va 130 ta loyiha).

Andijon viloyatida 2017-2021-yillarda qishloq xo'jaligi sohasida o'zlashtirilgan investitsiyalar yo'nalishlarini tahlil qilsak, ko'ramiz-ki, eng yirik (30 mlrd. so'mdan yuqori) investitsiyaviy loyihalar asosan: paxta-to'qimachilik klasterlarini tashkil etish; urug'lik chigitni kimyoviy usulda tuksizlantirib, dorilab, qayta ishlashni tashkil etish; gidroponika usulida issiqxona tashkil etish; parrandachilikni rivojlantirish, qoramolchilik, qo'yxona va qushxona tashkil etish; meva-sabzavot klasterini tashkil etish; intensiv usulda baliqchilikni tashkil etish; chorvachilikni tashkil etish yo'nalishlarida o'zlashtirilgan.

Ushbu davrda viloyatda eng katta xajmdagi investitsiyalar chorvachilik yo'nalishida (776309 mln. so'm yoki jamiga nisbatan 23,6%), paxta klasteri (672865 mln. so'm yoki jamiga nisbatan 20,5%), parrandachilik (459055 mln. so'm yoki jamiga nisbatan 14%), baliqchilikni rivojlantirish (425940 mln. so'm yoki jamiga nisbatan 13%), issiqxona (361953 mln. so'm yoki jamiga nisbatan 11%) yo'nalishlarida amalga oshirilgan.

Loyihalar soni bo'yicha peshqadamlik chorvachilik, baliqchilikni rivojlantirish va parrandachilik yo'nalishlarida – mos holda 266, 135 va 105 ta loyiha. Eng ko'p yangi ishchi o'rinlari parrandachilik (3213 nafar), chorvachilik (3177 nafar) va paxta klasteri (2488) yo'nalishlarida yaratilgan.

Xulosa va takliflar. Andijon viloyati qishloq xo'jaligida oxirgi yillarda ekin maydonlari, ishchi kuchi soni kamaygan bo'lsa-da, yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirish hajmi ortgan. Bunga qishloq xo'jaligi mahsulotlari diversifikatsiyasi hisobiga erishilgan, ya'ni bozorbop mahsulotlarni yetishtirish ko'paygan. 1 gektar ekin maydoniga to'g'ri keladigan qishloq xo'jaligi mahsuloti barqaror o'sib borib, 2017-yili joriy narxlarda 69,9 mln. so'mni, 2020-yili 126,1 mln. so'mni, 2022-yili 174,2 mln. so'mni tashkil qilgan.

Viloyatda bizdan sog'lom va barkamol avlod qolishi uchun kelajakda iste'moli ratsional iste'mol me'yorlaridan ortda qolayotgan go'sht mahsulotlari va parranda tuxumi taklifini ko'paytirishimiz maqsadga muvofiq.

Axborot mavjud bo'lmagan joyga kapital kiritishda xorijiy investorning qiziqishini uyg'otish qiyin. Shu nuqtayi nazardan, hududlarning investitsiya salohiyati, mavjud imkoniyatlari va boshqa barcha investorni qiziqitirgan ma'lumotlar majmuasini investitsiya portaliga joylab va yangilab borish tashkil etilishi lozim.

Har bir hududning investitsiya salohiyatini aks ettiradigan tayyor investitsiya takliflari ro'yxati ishlab chiqilishi va xorijiy investorlarga tavsiyaviy tarzda taqdim etilishi maqsadga muvofiqdir. Bu xorijiy investorning ishini yengillatish bilan birga, investitsiya loyihalarini amalga kiritish muddatlarini ham qisqartiradi.



“O‘zbekiston Respublikasining qishloq xo‘jaligini investitsiyaviy rivojlantirish qonuni”ni qabul qilish lozim. Chunki, respublikamizda aynan qishloq xo‘jaligiga investitsiya jalb etish va uni rag‘batlantirishning qonuniy asoslari bozor iqtisodiyoti talablari darajasida takomillashmagan. Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida investitsiya faoliyatini tartibga solish ayrim qonunlarda aks etgan bo‘lsada, biroq, bizning fikrimizcha, ushbu qonunning qabul qilinishi qishloq xo‘jaligida investitsiyaviy muhitni yaxshilash va investitsiya resurslaridan samarali foydalanishga xizmat qiladi, deb hisoblaymiz.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayonining boshqa sohalarga nisbatan turli tashki va ichki subyektiv omillar ta‘sirida tez talafot ko‘rishi, kutilmagan (fors-major vaziyatlar) xodisalarning sodir bo‘lishini oldindan bilishning qiyinligi, sug‘urtalanuvchi sub‘ektlarning boshqa sohalar subyektlaridan farq qilishi kabi holatlarni inobatga olgan holda qishloq xo‘jaligi uchun sug‘urta tizimi to‘g‘risida aloxida qonunni xam qabul qilish maqsadga muvofiq.

Qishloq xo‘jaligini moliyalashtirish uslublaridan biri sukuk deya ataluvchi Islom obligatsiyalari bo‘lib, olingan zayom qaytarilishining kafolati sifatida ko‘chmas mulkdan foydalanishni ko‘zda tutadi. Fikrimizcha, qonunchilikka shunday o‘zgartirish kiritish lozim-ki, olingan zayom qaytarilishining kafolati sifatida o‘z tasarrufidagi, uzoq muddatga ijaraga olingan ko‘chmas mulkdan foydalanish mumkin bo‘lsin.

Qishloq xo‘jaligidagi strukturaviy o‘zgarishlarning muqobil va samarali yo‘llari izlanib, unga muvofiq jaxon bozorida qimmatbaho bo‘lgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va eksport qilish xamda viloyat bo‘yicha suvni kam talab qiluvchi kannabis (lotincha Cannabis) ekinining texnik navlarini keng joriy qilish lozim.

“Respublika bo‘yicha kanalizatsiya tizimi va suv tarmoqlarini tubdan rekonstruksiya qilish va takomillashtirish dasturi” tuzishni favqulodda vaziyat taqozo qiladi. Nazarimizda, dastur tuzishdan avval respublika bo‘yicha kanalizatsiya va suv tizimidagi barcha muammolarni xatlovdan o‘tkazish kerak.

Ko‘pgina xorijiy ekspertlarning fikri mamlakatning “yashil rivojlanishi” suv inqirozidan chiqish yo‘li bo‘lishini ko‘rsatdi. Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning “yashil” yo‘li ish unumdorligi, bandlik va daromadlilikni oshirib, atrof-muhit holatini yaxshilashni nazarda tutadi.

Nazarimizda, joylarda kichik tabiiy ko‘llar (rus. prud)ni imkon bor maskanlarga barpo etish xam kambag‘allikni qisqartirishga, qishloq xo‘jaligini, baliqchilikni, o‘rmonchilikni rivojlantirishga xarakat hisoblanadi. Ota-bobolarimiz yomg‘ir va zax suvlar yo‘llariga ko‘llar hosil etganlar, atrofida qishloqlashib muvofiqiyatiga yetganlar.

Oziq-ovqat xavfsizligining asosi bo‘lmish urug‘chilik sohasi qo‘shimcha moliyalashtirishga muhtoj. Qachonki mamlakat o‘zini yaxshi, sifatli urug‘lar bilan ta‘minlay oladigan darajada bo‘lsa, shunda oziq-ovqat xavfsizligining asosiy muammosi yechilgan bo‘ladi. Har bir mamlakat o‘zining urug‘chilik tizimiga va siyosatiga ega bo‘lishi kerak.

Chorva xayvonlari uchun ozuqa muammosini xal qilish yo‘li sifatida katta magistral avtomobil yo‘llardan uzoqroq yer maydonlarida gazon o‘rniga beda (lyutserna) ekilishi lozim.

Tashkiliy-xuquqiy shaklini MChJga o‘zgartirgan fermer xo‘jaliklariga egallab turgan yerining bonitetiga qarab “muvofiqlashtirilgan yer solig‘i” (MES) joriy qilinib, aylanma mablag‘lardan undiriladigan barcha majburiy to‘lovlar va soliqlardan tabaqalashtirilgan holda imtiyozlar berilishi lozim, buning “aqlli” qishloq xo‘jaligi shakllanishida, “yashil” iqtisodiy taraqqiyot tashkil topishida muxim ta‘siri bor. MES turiga o‘tgan fermer xo‘jaliklarining faoliyatiga xar qanday tashkilot va muassasa tomonidan aralashish qa‘tiyan ta‘qiqlanishi muxim. MES turiga o‘tgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning egallab turgan yer maydoni uchun hisoblangan yer solig‘ining 25 foizini 1-chorakda, 25 foizini 2-chorakda, 25 foizini 3-chorakda, 25 foizini 4-chorakda to‘lash majburiyatlari yuklatilishi lozim. MES turiga o‘tgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar soliqlarni o‘z vaqtida to‘lamasa, yerga egalik qilish shartnomasi muddatidan avval bekor qilinib, tender asosida boshqa subyektlarga o‘tkazish tartibi joriy qilinishi kerak.

Xitoy tajribasidan kelib chiqqan holda sanoat korxonalari, asosan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari foydasining kamida 15%ni qishloq xo‘jaligini rivojlantirish maqsadida investitsiya manbai sifatida shakllantirish va foydalanish lozim.

Respublika bo‘yicha yig‘ilayotgan barcha moliyaviy jarimalar “Iqtisodiyot va moliya vazirligi”ning aloxida hisobraqamida to‘planishi, xar yili ochiqqlanishi va zaxira moliyaviy resursi sifatida saqlanishi lozim.

Davlat budjetiga tushumlarni kamida o‘n foizga ko‘paytirish maqsadida korxonalarga berilgan barcha soliq imtiyozlari (ilmiy tadqiqotlar uchun berilgan imtiyozlardan tashqari) bekor qilinishi, uning o‘rniga esa ayrim korxonalarga subsidiyalar berilishi lozim.

Barqaror moliyalashtirishning umumqabul qilingan xalqaro tamoyillarini mamlakatda yashil moliyalashtirish bozorini shakllantirish amaliyotiga joriy etish zarur. Xorijiy amaliyot tahliliga asosan, “yashil” obligatsiyalar va qarzlarni ekologik loyihalarni moliyalashtirishning maxsus vositasi hisoblanib, ham ushbu obligatsiyalar emitentlari va investorlarining mulkiy manfaatlarini, ham jamiyat va davlatning ekologik vaziyatni yaxshilash borasidagi qiziqishini qondirishga imkon beradi. Uning aynan davlat tomonidan yanada keng qo‘llanilishi uchun emitentlar va investorlarning “yashil” obligatsiyalarni chiqarish va sotib olishga qiziqishini oshirishga xizmat qiladigan bir qator huquqiy, tashkiliy, uslubiy, axborot, konsultatsion, qo‘llab-quvvatlash, rag‘batlantirish chora-tadbirlarini qabul qilish talab etiladi.



Katta ma'lumotlar (Big Data) "aqlli" qishloq xo'jaligiga katta ta'sir qiladi va butun oziq-ovqat mahsulotlari zanjirini qamrab oladi; intellektual datchiklar va qurilmalar katta ma'lumotlar hajmlarini yaratadilar, bu hajmlar qarorlar qabul qilishda ulkan imkoniyatlarni ta'minlaydi; katta ma'lumotlar (Big Data) an'naviy va noan'anaviy o'yinchilar o'rtasidagi rollar va munosabatlarda jiddiy o'zgarishlarga olib kelishi kutilmoqda; boshqarish (shu jumladan, ma'lumotlarga egalik qilish, maxfiylik, xavfsizlik) va biznes-modellar kelgusi tadqiqotlarda yechish lozim bo'ladigan eng asosiy masalalar bo'lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xolmatov S.X. Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari. // "Tafakkur manzili". 52-son, 1-jild, 2022 yil iyun, 2-qism. ISSN:2180-2160. 71–83-betlar.
2. Xolmatov S. Investitsiyalarning qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirishdagi yo'nalishlari. "EURASIAN JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES" Innovative Academy Research Support Center UIF = 8.3 | SJIF = 5.961 www.in-academy.uz Volume 2 Issue 13, December 2022 ISSN 2181-2853 <https://doi.org/10.5281/zenodo.7482867>
3. Понедельников В.В. Инвестиционное обеспечение устойчивого развития аграрного производства (Аграр ишлаб чиқаришнинг барқарор ривожланиши инвестициявий таъминоти) [Электрон ресурс]: На материалах Ставропольского края : Дис. ... канд. экон наук : 08.00.05 . –М.: РГЕ, 2006 (Из фондов Российской Государственной Библиотеки).
4. Vahobov A.V., Xodjibakiev Sh.X., Mo'minov A.G. Xorijiy investitsiyalar: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Moliya, 2010. – 432 b.
5. Haydarov N.H. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari: iqt. fan. dokt. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent: 2003. – 29 b.
6. www.stat.uz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.